



Received: January 7, 2025
Accepted: February 23, 2025
Available online: February 25, 2025

Umarjon G‘oyibov

Tayanch doktorant
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI ANTROPONIMIK KOMPONENTLI FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING KONSEPTUAL METAFORA TAHLILI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolaning maqsadi – bir-biriga qardosh bo‘lmagan tillar oilasiga mansub ingliz va o‘zbek tillarida ma‘nosi ko‘chimga uchragan antroponimik komponentli frazeologik birliklarning konseptual metaforik xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Frazeologiyani o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda muayyan bir tildagi frazeologik birliklarning kognitiv aspekti, shu jumladan, konseptual metafora nazariyasidagi tahlili amalga oshirilgan, ammo turli tillar oilasiga mansub ingliz va o‘zbek tillari antroponimik komponentli frazeologik birliklarning metaforik qo‘llanilishi yetarlicha o‘rganilmagan.

Frazeologik birliklar tarkibida antroponim komponentlar u yoki bu diniy rivoyatlarda tilga olingan obrazlar, tarixiy shaxslar, mifologik va badiiy obrazlar hamda xalq og‘zaki ijodi va afsonalarida tasvirlangan qahramonlarning o‘ziga xos sifatlari haqidagi ensiklopedik axborotning kishi ongida faollashishida katta hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, antroponimlar ikki xil madaniyatga ega ingliz va o‘zbek tillarida shaxs xulq-atvori, aqliy salohiyati, ijtimoiy ahvoli kabi tushunchalarning inson ongida konseptuallashishida muhim rol o‘ynaydi. Maqolaning vazifalari kishining atoqli otlarini o‘z ichiga olgan frazeologik birliklarni konseptual metafora orqali tahlil qilish, ingliz va o‘zbek tillarida ma‘lum bir insonlarga xos xususiyatlarni o‘xshashlik, umumiylik asosida boshqa insonlarga metaforik qo‘llanilishini o‘zida aks ettirgan antroponimik komponentli frazeologik birliklarining o‘ziga xos jihatlarni ochib berish

Umarjon Goyibov

PhD Student
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: umar.goyibov@mail.ru
ORCID iD: 0009-0006-6941-0106

CONCEPTUAL METAPHOR ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH THE ANTHROPONYMIC COMPONENT IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

ABSTRACT

The objective of this investigation is to elucidate the conceptual metaphorical characteristics of phraseological units containing anthroponymic components, with transferred meanings, in English and Uzbek languages from unrelated language families. Previous studies have analyzed cognitive aspects of phraseological units within specific languages, including conceptual metaphor theory. However, the metaphorical application of phraseological units with anthroponymic components in English and Uzbek, belonging to different language families, has not been sufficiently explored.

In the structure of phraseological units, anthroponymic components significantly contribute to the activation of encyclopedic information in the human mind regarding the specific qualities of figures mentioned in religious narratives, historical figures, mythological and literary characters, and heroes described in folklore and legends. Additionally, anthroponyms play a crucial role in the conceptualization of concepts such as personality, behavior, intellectuality, and social condition in English and Uzbek languages, which represent two distinct cultures. The tasks of this study include the analysis of phraseological units containing personal names through conceptual metaphor, utilizing various sentences and examples, as well as the identification of specific peculiarities of phraseological units with anthroponymic components in both languages that reflect the metaphorical transfer of certain personal attributes to other individuals based on similarity

sanaladi.

Frazeologik birliklarning ko'chma ma'noga ega ekanligini inobatga olsak, ushbu maqolada ularning tarkibida ishtirok etgan antroponimlar qaysidir xarakterli jihatlari bilan o'zga insonlarga qiyos qilinishi va natijada ular mazkur antroponimlar bilan bog'liq muayyan assotsiativ ma'nolarga ega bo'lishi muhokama qilinadi. Maqolada konseptual metafora tahlilida antroponimik komponentli frazeologik birliklar tarkibida insonni, ya'ni uning xulq-atvori, yurish-turishi, aqliy salohiyati, o'ziga xos qobiliyati, tashqi ko'rinishi, jismoniy holati, mehnat faoliyati va ijtimoiy mavqeyini bevosita tasvirlash uchun ensiklopedik ma'lumot beruvchi manba sifatida antroponimlar ishtirok etishi, shu bilan birga, ingliz va o'zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklarning ma'lum guruhi insonni bevosita tasvirlashdan tashqari, artefaktlar, narsa-predmetlar, oziq-ovqat, mavhum tushunchalar, ish-harakat, makon va zamon kabi tushunchalarni tasvirlash imkoniga ham egaligi haqidagi xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: antroponimik komponent, frazeologik birlik, konseptual metafora, kognitiv model, assotsiativ ma'no, mental maydon, konsept, kognitiv mexanizm, ensiklopedik axborot, frazeologik ma'no.

KIRISH

Bugungi kunga kelib, insonning tafakkur faoliyati bilan bog'liq bilimning shakllanish mexanizmi hisoblangan tilning kognitiv aspektini tadqiq qilishga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada o'sdi. Tafakkur faoliyati jarayonida yuzaga keladigan bilim insonning ongli faoliyati zaminida shakllanadi va bu faoliyat amalga oshishida muhim rol o'ynaydigan lisoniy bilim lingvokognitiv tahlil sifatida tanlanishi ham bejiz emas. Zero, voqelikni bilish jarayoni lisoniy olamning kognitiv olam bilan chambarchas hamohangligi vositasida yuzaga keladi hamda inson ongida mazkur jarayon mahsuli bo'lmish bilim shakllanadi. Qolaversa, kognitiv tilshunoslik inson ongida kechadigan mental jarayonlarni lisoniy faoliyat bilan bog'liq holda o'rganib, tilni bilim qatlamlarini tashkil etish, aks ettirish, qayta ishlash, saqlash va uzatishning kognitiv mexanizmi sifatida tahlil qiladi.

Kognitiv nuqtayi nazardan til tizimi bilim olish va saqlash, uni amalda qo'llash va uzatish manbayi, uni shakllantiruvchi vosita sifatida izohlanib, mazkur til tizimi har qanday sohada egallangan bilimning shakllanishi va tizimlashtirilishining asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. Tilning borliq haqidagi ma'lumotlarni to'plash, saqlash, saralash va uzatish kabi vazifalari bilimning lisoniy vositalarda aks etish mexanizmlarini o'rganishni zaruriyatga aylantiradi, chunki bilim insonni o'rab turgan olamning konseptuallashtirilishi va kategoriyalashtirilishi mahsuli, inson

and analogy.

Given that phraseological units possess metaphorical meanings, this article examines the comparison of anthroponyms within their components to other individuals in certain characteristic aspects, resulting in associative meanings connected to these anthroponyms. The conclusion drawn is that, in the analysis of conceptual metaphor, anthroponyms serve as an encyclopedic source of information within the structure of phraseological units in English and Uzbek languages to directly describe a person, including their personality, intellectuality, appearance, and labor activity. Furthermore, a specific group of phraseological units with anthroponymic components has the capacity to describe concepts such as artifacts, food, space, and time.

Key words: anthroponymic component, phraseological unit, conceptual metaphor, cognitive model, associative meaning, mental space, concept, cognitive mechanism, encyclopaedic information, phraseological meaning.

ongida borliqning in'ikosi hisoblanadi. Bilim inson ongida konsept, analogiya, obraz va boshqa mental jarayonlar ifodasi sifatida aks etib, ulardan konsept termini kognitiv tilshunoslik nazariyasida keng qo'llaniladi. Tafakkur birligi va mental hodisa sifatida yuzaga keladigan konseptning lisoniy voqelanishi nutqiy tafakkur faoliyati natijasidir [Safarov, 2006; 18]. Konseptning lisoniy voqelanishi esa kishi ongi va til tizimi hamohangligida yuzaga keladi. Bundan tashqari, konseptlarning mazmuni insonlarning tajribasi, bilim-ko'nikmalari, tasavvur va obrazlari yordamida doimiy ravishda rivojlanib, bilimlar bilan to'ldirilib boradi.

Kognitiv nuqtayi nazardan bilim strukturasini tilda aks ettirish uchun frazeologik birliklar ahamiyatga molik lisoniy vositalardan biri sanaladi, chunki axborotning inson tomonidan idrok qilingan xilma-xil ko'rinishlari frazeologik birliklarda mujassamlashgan, ya'ni olamning frazeologik manzarasi ichki shaklida so'zlovchining borliqqa emotsional-evaluativ munosabati ifodasi sifatida talqin qilinadigan axborot aks etadi. Til tomonidan yaratilgan olamning konseptual manzarasi obyektiv dunyoni subyektiv obrazga aylantiradi va u o'z ichiga borliqni anglashda inson omilini qamrab oladi, chunki kognitiv tilshunoslik insonning borliqni tayyor bilim sxemalaridan iborat bo'lgan turli-tuman konseptual maydonlar orasidagi proyeksiyalashuv jarayoni natijasida anglab yetishi hamda butunlayin yoki qisman ko'chma ma'noga ega bo'lgan til birliklarini yaratishi singari mental jarayoniga alohida e'tibor qaratadi. Zero, voqelikning lisoniy hodisa bilan bog'liqlikda inson roli beqiyos bo'lib, tilda inson ta'siri, inson omili muqarrar ravishda mavjud. Ko'chma ma'noga ega bo'lgan har qanday til birliklarining o'ziga xos xususiyatlari insonning borliqni kuzatishlari natijasida hosil bo'lgan bilimi, to'plangan tajribasi hamda konseptual tizimiga asoslanadi. Insonning turli-tuman faoliyati ramziy bo'lishi bilan birgalikda universal va milliy xususiyatga ham ega bo'lib, u frazeologik birliklar tizimida antroponimik komponentlar misolida yanada oydinlashadi.

TADQIQOT METODLARI

Ingliz va o'zbek tillari frazeologik birliklari tarkibidagi antroponimlarning kelib chiqishini tavsiflash maqsadida mazkur tadqiqotda etimologik tahlildan unumli foydalanildi. Bunda har ikki til frazeologik birliklari tarkibidagi antroponimlar tarixiy voqea-hodisalar, diniy rivoyatlar, badiiy asar namunalari, xalq og'zaki ijodi durdonalari va afsonalari hamda ingliz va o'zbek xalqlarida tez-tez uchraydigan ismlardan kelib chiqqanligi voqelanadi. Qadimgi Rim va Yunon mifologiyasidan kelib chiqqan antroponimlarning frazeologik birliklar tarkibida qo'llanilishi esa faqat ingliz tilida kuzatiladi. Mazkur tahlil yordamida chog'ishtirilayotgan tillar antroponimik komponentli frazeologik birliklarining kelib chiqish manbalarini tarixiy antroponim, diniy antroponim, badiiy antroponim, mifologik antroponim, folklor antroponimi hamda tipik antroponim singari guruhlariga ajratish mumkin.

Chog'ishtirilayotgan tillar antroponimik komponentli frazeologik birliklarining ma'noviy xususiyatlarini tavsiflash maqsadida semantik tahlildan unumli foydalaniladi. Mazkur tahlil yordamida ularning qanday ma'nolarni anglatishi hamda frazeologik birliklar tarkibidagi antroponimlar bilan qanday assotsiatsiyaga

kirishganligi aniqlanadi. Bundan tashqari, mazkur semantik xususiyatlar frazeologik birliklar tarkibidagi antroponimlar bilan bevosita yoxud bilvosita bog‘liq ekanligi ham voqelanadi.

Tilshunoslikning kognitiv yo‘nalishida yangi tadqiqot metodlaridan biri sanalmish konsept tahlili yordamida chog‘ishtirilayotgan tillar frazeologik birliklari tarkibidagi antroponimlar bilan bog‘liq ensiklopedik axborot vositasida qanday konseptlarni hosil qilishi aniqlanadi. Mazkur konsept esa kishining mental faoliyatidan tashqari holda ro‘yobga chiqishi mumkin emas, u tilda o‘z aksini topishi zarur. Ingliz va o‘zbek tillari frazeologik birliklari tarkibidagi antroponimlar mazkur konseptlarni hosil qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bunda ular bilan bog‘liq aniqlangan semantik xususiyatlar hamda ensiklopedik axborot yordamida mazkur ahamiyat anglashiladi.

Maqolada tilshunoslikning kognitiv yo‘nalishida yangi tadqiqot metodlaridan biri sanalmish konseptual metafora tahlili ustuvor metod sifatida qo‘llanilgan bo‘lib, ushbu tahlil yordamida ma‘nosi ko‘chimga uchragan ingliz va o‘zbek tillari antroponimik komponentli frazeologik birliklarining konseptual metaforik xususiyatlari ochib beriladi. Bunda mazkur frazeologik birliklar tarkibida ishtirok etgan antroponimlar, ya‘ni kishining atoqli otlariga ega insonlarga xos xususiyatlar o‘xshashlik, umumiylik asosida boshqa insonlarga yoxud ular yaratgan, egalik qilgan yoki o‘z ta‘sirini qoldirgan narsa-predmetlari, joy-makonlari, yashagan zamonlari yoki ular tutgan xatti-harakatlari o‘xshashlik, umumiylik asosida boshqa narsa-predmet, makon va zamon yoxud xatti-harakatlarga metaforik qo‘llanadi.

Chog‘ishtirilayotgan tillar antroponimik komponentli frazeologik birliklarining etimologik, semantik, konseptual va konseptual metaforik xususiyatlaridagi o‘xshash hamda farqli jihatlarini tavsiflash maqsadida qiyosiy-chog‘ishtirma tahlilidan unumli foydalanildi. Bunda ingliz va o‘zbek tillaridagi mazkur frazeologik birliklarning farqli jihatlari o‘xshash jihatlariga qaraganda ko‘p bo‘lishi tabiiy ekanligi voqelanadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi mazkur frazeologik birliklarning etimologiyasi, semantikasi, konseptual maydonlari hamda konseptual metaforik qo‘llanilishidagi farqli jihatlarining mavjudligi har ikkala tilni bir-biridan ajratib turadi, lekin shunga qaramay o‘xshash jihatlarining mavjudligi har ikkala xalqni birlashtirib turuvchi mushtarak tomonlari borligidan darak beradi.

NATIJALAR

Konseptual metafora nazariyasida ingliz tilidagi frazeologik birliklarning tahliliga oid izlanishlar Z.Kovekses, P.Sabko [Kovekses & Szabcó, 1996], H.Ying, S.Yan [Ying & Yan, 2020], M.Omazich [Omazić, 2005], D.Dobrovolskiy, E.Piraynen [Dobrovolskiy & Piirainen, 2005], ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning tahliliga oid tadqiqotlar A.G. Yuldashev [Yuldashev, 2022] kabi olimlar ishlarida kuzatiladi.

Frazeologik variatsiyaning kognitiv yondashuvi bo‘yicha tadqiqot olib borgan S.Kataldoning ta‘kidlashicha, kognitiv tilshunoslik yo‘nalishi insonning obyektiv borliqni o‘zida xotiradagi mavjud tayyor lisoniy birliklar va ensiklopedik axborotni qamrab olgan turli xil mental maydonlar orasidagi konseptual proyeksiyalashuv

orqali anglashi hamda har qanday tilda mazkur proyeksiyalashuv natijasida majoziy ma'noga ega bo'lgan til birliklarini yaratishi jarayoniga beqiyos ahamiyat qaratadi [Cataldo, 2020; 65].

Frazeologik birliklarni kognitiv semantik nuqtayi nazaridan tadqiq qilgan Z.Kovekses va P.Sabkoning ta'kidlashicha, ko'plab frazeologik birliklarning ma'nosi o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmasdan, balki metafora, metonimiya, umume'tirof etilgan bilimlar majmuyi singari kognitiv mexanizmlar ko'rinishida motivlashgan bo'lib, ular bilim zaxirasini figurativ frazeologik ma'nolarga tutashtiradi [Kovekses & Szabó, 1996; 330]. Xuddi shunday yo'nalishda tadqiq qilgan H.Ying va S.Yanning fikricha, frazeologik birliklarning ma'nosi o'z-o'zidan paydo bo'lgan til hodisasi sifatida emas, balki kishining siyosat, tarix, xalq ijodiyoti, geomadaniyat, diniy qarashlar kabi qomusiy bilimlari natijasida paydo bo'lgan hamda uning kognitiv faoliyati mahsuli sifatida ta'riflanadi [Ying & Yan, 2020; 88].

Ma'nosi ko'chimga uchragan ingliz tilidagi frazeologik birliklarning konseptual metaforik xususiyatlari bo'yicha izlanish olib borgan M.Omazichning e'tirof etishicha, tilda majoziy ma'noga ega bo'lgan har qanday frazeologik birliklar bizning konseptual tizimimizning bir qismi hisoblangan konseptual metafora natijasida shakllanadi [Omazić, 2005; 41]. Metaforaning kognitiv aspekti va unda frazeologik birliklar tadqiqi bo'yicha izlanish olib borgan D.Dobrovolskiy hamda E.Piraynen ham xuddi shunday fikrda bo'lib, ularning ta'kidlashicha, frazeologik birliklar ko'pincha majoziy ma'noga ega bo'lib, metaforik ko'rinishga ega bizning konseptual tizimimizning bir qismi sanaladi [Dobrovol'skiy & Piirainen, 2005; 8].

Frazeologik ma'no shakllanishining metaforik va metonimik mexanizmlarini tadqiq qilgan A.V. Tuarmenskaya, V.V. Tuarmenskiy va A.V. Tuarmenskiy tilshunoslikning kognitiv yo'nalishi inson xotirasidagi mavjud konseptlar asosida yangi bilimlar majmuyining paydo bo'lishiga alohida ahamiyat qaratib, konseptual metafora orqali mazkur konseptlar o'z elementlari hamda ma'nolaridagi umumiylik orqali birlashishi vositasida yangi konsept shakllanadi [Tuarmenskaya et al., 2023; 2], dehqin hisoblashgan. Konsept obyektlar va ularning xususiyatlari haqidagi axborotni qurish jarayonida vujudga keladi va ushbu axborot insonni o'rab turgan borliqdagi voqeliklarning hamda inson tasavvuridagi dunyo va undagi hodisalarning potensial ahvoli haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi [Baxronova, 2017; 81-82]. Konsept kishining ong-shuuri va tafakkur faoliyatida amalga oshuvchi bir-biri bilan uzviy bog'liq konseptuallashtirilgan va kategoriyalashtirilgan jarayon natijasidir. Chunki, konseptuallashtirish jarayoni bu –konseptni shakllantirish hamda lingvistik ma'lumotlar va ensiklopedik axborot asosida bilim strukturalarini barpo etish bilan bog'liq inson kognitiv faoliyatini anglatuvchi dinamik mental jarayonidir [Ashurova & Galiyeva, 2018; 70]. Mazkur jarayon axborotning integrallashuvi va mustahkamlanishiga asoslangan relyatsional tafakkur va mavhumlashtirish kabi yuksak ongli faoliyat bilan bog'liq kognitiv jarayonlarni hamda borliq haqidagi mavhum tushunchalarni tahlil qiladi, shu bilan birga, konsept bilan chambarchas bog'liq holda o'z ichiga muayyan bir bilim sohasi bilan assotsiatsiyalashtirilgan hodisalarning fundamental mohiyatini qamrab oladi [Cocchiarella, 1996]. Ushbu konsept esa tafakkur doirasidan tashqari

holatda o‘z ma’nosiga ega bo‘lishi yoki ifodalanishi mumkin emas, u tilda o‘z aksini topishi zarur.

“Xavfsizlik” mavzusi ostida birlashgan frazeologik birliklarning sotsiomadaniy aspektini tadqiq qilgan S.M. Yusupovaning e’tirof etishicha, kognitiv nuqtayi nazardan ma’no – bu metafora hamda metonimiya orqali amalga oshgan borliq haqidagi ajratib olingan va umumlashtirilgan bilimlarni aniqlab beruvchi butun bir xususiyatlar ko‘lamini aks ettiradi [Yusupova, 2020; 24].

Frazeologik birliklarning kognitiv xususiyatlari bo‘yicha izlanish olib borgan A.A. Savchenko va A.S. Tsarevaning ko‘rsatishicha, frazeologik birliklarning obrazli manzarasi namoyon bo‘ladigan metafora orqali bir-biriga qardosh bo‘lmagan ikki til lingvomadaniyatidagi muayyan tushunchalar o‘rtasida ma’lum farqlarni ajratib olishimiz mumkin [Savchenko & Tsareva, 2023; 4].

MUNOZARA

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, frazeologik birliklar olam konseptual manzarasining tilda verballashishida ahamiyatga molik til birliklaridan biri sanaladi. Kognitiv nuqtayi nazardan frazeologik birliklar o‘z komponentlari yig‘indisidan tashkil topgan ma’no birligiga ega bo‘lgan til birligi sifatida emas, balki konseptual tizimimizning mahsuli sifatida qaraladi. Frazeologik birliklar tarkibidagi komponent so‘zlar esa mazkur konseptualizatsiya jarayonini shunchaki chuqur ochib beradi [Kovecses & Szabó, 1996; 330]. Shuning uchun ham frazeologik birliklarning ma’nosi bizning olamni konseptual anglashimiz natijasida yuzaga keladi, ya’ni bizning konseptual sistemamizda mujassamlashgan borliq haqidagi bilimlarimiz asosida shakllanadi. Masalan, ingliz tilidagi *a friend in need, fair-weather friend, friends in high places, a friend at court* kabi frazeologik birliklarning asosiy komponentini *friend* (do‘st) so‘zi tashkil qiladi. Mazkur frazeologik birliklar bizning ongimizda “Do‘stlik” konseptini hosil qiladi. Ammo *through thick and thin, birds of a feather, two peas in a pod, a shoulder to cry on, close-knit, build bridges, hit it off* kabi frazeologik birliklarda esa bevosita *friend* (do‘st) so‘zi ishtirok etmagan, balki uning doirasida birlashuvchi *thick and thin* (og‘ir va qiyin damlar), *of a feather* (bir guruh vakili), *two peas* (o‘xshashlik), *shoulder* (suyanch), *bridge* (ko‘prik) kabi so‘zlar ishtirok etgan. Bu esa bizning *friendship* (do‘stlik) haqidagi bilimlarimiz asosida mazkur frazeologik birliklar shakllanganligini anglatadi. Do‘stlik to‘g‘risidagi bilimlarimiz esa quyidagilardan iborat:

1) qarashlari, dili, ish faoliyati yaqin bo‘lgan, inoqlik, ahillik bilan bog‘langan ikki yoki undan ortiq kishilarning ijtimoiy munosabati;

2) qiyin damlarda bir-birini qo‘llab-quvvatlash (*through thick and thin, a shoulder to cry on*);

3) umumiy qarashlar va qiziqishlarga ega bo‘lish (*birds of a feather, two peas in a pod*);

4) do‘stlik munosabatlarining boshlanishi (*hit it off*), mustahkamlanishi (*build bridges*) va boshqalar.

Konseptual metafora obyektiv reallikni bilish, konseptuallashtirish, tushuntirish

va baholash usuli, bir mental maydon haqidagi bilimlarning boshqa mental maydon bilan kesishishi mahsuli sanaladi [Xudoyberganova, 2024; 42]. Mazkur metafora ikki mental maydonni umumiy jihatlari asosida birlashtiradi hamda buning asosida yangi hosila ma'noga ega frazeologik birliklarni shakllantiradi. Birinchi mental maydon konkret ko'rinishga ega bo'lib, ko'pincha fizik obyektlarni o'z ichiga qamrab olsa, ikkinchi mental maydon asosan abstrakt ko'rinishida mavhum tushunchalarni o'z ichiga oladi. Ular ham, o'z navbatida, manba va maqsad maydonlari deb atalib, bilim zaxiramiz jamlangan manba maydonidan foydalangan holda maqsad maydonida biz tasvirlamoqchi bo'lgan obyekt ochib beriladi. Z.Kovekses hamda P.Sabko konseptual metafora nazariyasini "*Love is Fire*" (Muhabbat – bu olov) kognitiv modeli misolida tushuntirib beradi [Kovekses & Szabó, 1996; 333]. Bunda *love* (muhabbat) maqsad maydoni, *fire* (olov) esa manba maydoni sanalib, har ikkisi ham iliqlik, umid, yorug'lik kabi umumiy jihatlari mavjud. Bu yerda biz *fire* (olov) manba maydoni orqali *love* (muhabbat) maqsad maydonini tasvirlaymiz:

LOVE is FIRE.

The *fire* between them finally *went out*.

I am *burning* with love.

She *carries a torch* for him.

The *flames are gone* from our relationship.

Frazeologik birliklar tarkibida antroponim komponentlar u yoki bu diniy rivoyatlarda tilga olingan obrazlar, tarixiy shaxslar, mifologik va badiiy obrazlar hamda xalq og'zaki ijodi va afsonalarida tasvirlangan qahramonlarning o'ziga xos sifatlari haqidagi ensiklopedik axborotning kishi ongida faollashishiga katta hissa qo'shadi. Bundan tashqari, antroponimlar ikki xil madaniyatga ega ingliz va o'zbek tillarida shaxs xarakteristikasi, aqliy salohiyati, tashqi ko'rinishi, mehnat faoliyati, ijtimoiy holati kabi tushunchalarning inson ongida konseptuallashtirishida muhim rol o'ynaydi.

Inson obyektiv borliqni bilish jarayonida o'zi kuzatayotgan voqea-hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib oladi, so'ngra esa mazkur xususiyatlarning umumiy va o'xshash jihatlari vositasida ikki obyekttni bir-biriga taqqoslaydi. Buning natijasida yangi hosila ma'noga ega bo'lgan hamda qisman yoki to'liq ko'chimga uchragan frazeologik birliklarni shakllantiradi. Ingliz va o'zbek tillaridagi antroponimik komponentli frazeologik birliklar shular jumlasidan bo'lib, konseptual metafora kognitiv mexanizmi vositasida ularning shakllanishi yanada oydinlashadi. Konseptual metaforada, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, ikkita mental maydon ishtirok etadi, ular o'z umumiy jihatlari asosida birlashadi hamda yangi hosila ma'noga ega antroponimik komponentli frazeologik birliklar yuzaga keladi. Bunda maqsad maydoni deya atalmish birinchi mental maydonda biz tasvirlamoqchi bo'lgan obyekt ishtirok etadi, manba maydoni deb sanalmish ikkinchi mental maydonda esa frazeologik birliklar tarkibida kelgan antroponimlar ishtirok etadi. Manba maydonidan o'rin olgan antroponimlar bilan bog'liq qomusiy bilimlarimiz yordamida maqsad maydonidagi tasvirlamoqchi bo'lgan obyekt anglashiladi. Ushbu obyekt esa o'z ichiga inson, predmet, abstraksiya,

ish-harakat, makon va zamon singari konseptlarni o'z ichiga oladi.

Ingliz va o'zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklar kishi ongida muayyan bir ensiklopedik axborotni aktivlashtirishda ahamiyatli o'rni mavjud. Bunda antroponimlar bilan bog'liq konseptual tizim tabiatan metaforik xususiyatga ham egaligini, antroponimik komponentli frazeologik birliklarning shakllanishida metaforaning o'rni salmoqli ekanligini ta'kidlash zarur. Chunki, antroponimik komponentli frazeologik birliklarning ma'nosi boshqa til birliklarida kuzatilgani kabi vaziyat taqozosi bilan inson tomonidan egallangan bilimlar vositasida ko'chimga uchraydi va buning natijasida frazeologik birliklar tizimida antroponimlarning, ya'ni kishining atoqli otlariga ega insonlarning ma'lum bir xususiyati o'xshashlik, umumiylik asosida boshqa bir insonlarga ko'chib o'tadi.

An'anaviy metaforadan farqli ravishda, kognitiv tilshunoslikda konseptual metafora kognitiv mexanizm sifatida qaralib, inson tafakkur usuli, inson bilish faoliyatining fundamental jarayonlaridan biri, analogiya bilan bog'liq mental jarayon asosida ma'lumot konseptuallashtirilishining o'ziga xos usuli, bilimning bir konseptual maydondan boshqasiga ko'chib o'tishi kabi ta'riflanadi [Ashurova & Galiyeva, 2018; 80]. Konseptual metafora atamasini tilshunoslikka olib kirgan J. Lakoff va M. Jonson konseptual tizim ko'pincha metaforik ko'rinishga egaligini, tafakkur faoliyat va bajaradigan ish-harakat bevosita amalga oshadigan oddiy konseptual tizimi tabiatan metaforik xususiyatga egaligini ta'kidlab o'tadi [Lakoff & Johnson, 1980; 3].

Kognitiv tilshunoslikda ma'nosi ko'chgan til birliklari haqida gap ketganda ko'pincha konseptual metafora nazariyasi va konseptual integratsiya nazariyasi atamaları qo'llaniladi. Ularning o'rtasidagi asosiy farq shundaki, til birliklarining ma'no ko'chishi jarayoni uchun konseptual metaforada ikkita konseptual maydon, ya'ni manba va maqsad maydonlari faollashsa, konseptual integratsiya nazariyasida to'rt va undan ortiq konseptual maydonlar ishtirok etadi. Garchi mazkur nazariyalar o'z tarkibidagi konseptual maydonlarning miqdori bilan farqlansa-da, ular bir-birini to'ldiruvchi, bir-birini oydirashtiruvchi nazariya sifatida e'tirof etiladi, chunki metafora konseptual integratsiya nazariyasining markazida turib, uni muayyan mental maydonlar bilan ta'minlab beradi [Omazić, 2005; 54]. Konseptual metaforada manba maydoni inson tilning lug'at tarkibidagi mavjud birliklardan va ularning mazmuni haqida egallagan bilimidan foydalanishni anglatga, maqsad maydoni inson tafakkurida tayyor til birliklari orqali hosil qilinadigan yangi hosila ma'no hamda aniqlashgan va barqarorlashgan yangi bilim sanaladi [Yuldashev, 2022; 177-178].

Bevosita insonning ichki va tashqi sifatleri bilan bog'liq bo'lgan metaforani anglatuvchi antroposentrik metaforaning kognitiv aspekti bo'yicha izlanish olib borgan G.S. Nasrullayevaning tadqiqot ishida ko'rsatilishicha, insonga xos xususiyatlarning metaforik qo'llanishidan tashqari, zoonimlar, fitonimlar, ornitonimlar va abionimlar singari borliq hodisalarining insonga nisbatan metaforik qo'llanilishi ham keng uchraydi [Nasrullayeva, 2019; 16-17]. Zoonimlar, fitonimlar, ornitonimlar va abionimlar qatori antroponimlar ham insonga nisbatan, ham borliq hodisalariga nisbatan metaforik qo'llanilish imkoniyatiga ega. Chunki, mazkur antroponimlar, ya'ni kishining atoqli otlariga ega insonlarga xos xususiyatlar umumiylik, o'xshashlik

asosida boshqa insonlarga yoxud borliq hodisalariga ko'chadi. Mazkur metaforik qo'llanilish ingliz va o'zbek tillari antroponimik komponentli frazeologik birliklarida yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Ingliz va o'zbek tillari frazeologik birliklari tarkibida ishtirok etgan antroponimlar ko'pincha o'z ma'nosida emas, balki ko'chma ma'noda qo'llanilib, u yoki bu shaxslarning yurish-turishi, xulq-atvori, mehnat faoliyati, ijtimoiy maqomi, aqliy salohiyati, tashqi ko'rinishi, jismoniy holati hamda ma'lum bir shaxsning faoliyati ta'siri natijasida boshqa bir narsa-predmet, zamon va makon, ish-harakat yoki mavhum tushunchalarni anglatib keladi. Zero, ingliz va o'zbek tillari antroponimik komponentli frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari bo'yicha tadqiqot olib borgan Z.N. Abdusamadov "frazeologik birliklar tarkibida qo'llaniladigan kishining atoqli nomi kishi xarakterining in'ikosi, uning fe'li, xulq-atvori, yurish-turishidagi o'ziga xoslikning aksidir" [Abdusamadov, 2022; 119-120]. Bunda antroponimlar frazeologik birliklar tarkibida bir konseptual maydondan boshqa bir konseptual maydonga ko'chib o'tadi. Ya'ni, birinchi konseptual maydonda ma'lum bir tarixiy voqealar, diniy rivoyatlar, mifologik va badiiy voqeliklar hamda xalq og'zaki ijodi va afsonalarida tasvirlangan qahramonlarning o'ziga xos sifatleri haqidagi ensiklopedik axborot beradigan antroponimlar ikkinchi konseptual maydonda, ya'ni frazeologik birliklar tarkibida kelib shaxsning ma'lum bir xususiyati yoki shaxs faoliyati ta'sirida shakllangan narsa-predmetlar va mavhum tushunchalarni anglatib keladi hamda o'sha ensiklopedik ma'lumot bilan assotsiatsiyaga kirishadi.

Tafakkur faoliyatining erkin qurilmalari sifatida talqin qilinib kelinayotgan model tafakkurda yaratilgan mental struktura, qayta reprezentatsiya qilingan hamda sxemalashtirilgan lisoniy tizimning mohiyatli aloqa-munosabatlari tushunilib, model terminiga murakkab til birliklarida segment va supersegment unsurlarning qonuniy joylashuvi bo'lib, u lisoniy tuzilma xususiyatlari belgilanadi va nutqda doim qayta ifodalanadi deya ta'rif beriladi [Yuldashev, 2022; 76-77]. Struktural tilshunoslikda lisoniy maqsadda keng qo'llanilgan modeldan farqli ravishda kognitiv model konseptual tizimning eng umumlashtirilgan hamda sxemalashtirilgan ifodasi sifatida ta'riflanadi. Unda ushbu kognitiv model bazaviy ma'noli lisoniy birliklar orqali ifodalanadigan konseptlarni strukturalashtiradi [Yuldashev, 2022; 78].

Ingliz va o'zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklarning metaforik qo'llanilishi muayyan kognitiv modellar asosida amalga oshadi. Bunda kognitiv model elementlari sifatida maqsad va manba maydonlari ishtirok etib, maqsad maydonida tasvirlamoqchi bo'lgan obyekt nazarda tutilsa, manba maydonida bevosita ensiklopedik ma'lumot tashuvchi antroponimlar qatnashadi. Tahlil natijasida tasvirlamoqchi bo'lgan obyekt quyidagi konseptlardan iborat ekanligi aniqlandi: INSON, PREDMET, ABSTRAKSIYA, ISH-HARAKAT, MAKON va ZAMON. Mazkur antroponimlarni quyidagi guruhlariga ajratib chiqishni lozim:

1) *tarixiy antroponimlar* – muayyan konseptlarni tasvirlash uchun tarixiy shaxslarga xos xususiyatlar inobatga olinadi;

2) *diniy antroponimlar* – muayyan konseptlarni tasvirlash uchun diniy adabiyotlarda tilga olingan obrazlarga xos xususiyatlar inobatga olinadi;

3) *mifologik antroponimlar* – muayyan konseptlarni tasvirlash uchun qadimgi Rim va Yunon mifologiyasida tilga olingan qahramonlarga xos xususiyatlar inobatga olinadi;

4) *folklorik antroponimlar* – muayyan konseptlarni tasvirlash uchun xalq og‘zaki ijodi durdonalarida kuylangan qahramonlarga xos xususiyatlar inobatga olinadi;

5) *badiiy antroponimlar* – muayyan konseptlarni tasvirlash uchun taniqli adiblarning asarlarida tasvirlangan obrazlarga xos xususiyatlar inobatga olinadi;

6) *tipik antroponimlar* – muayyan konseptlarni tasvirlash uchun bir necha insonlarning umumiy obrazini tipiklashtiruvchi kishilarga xos xususiyatlar inobatga olinadi.

Ingliz va o‘zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklarning konseptual metafora tahlilini amalga oshirish maqsadida mazkur frazeologik birliklarga oid ingliz tilidagi manbalarini “Collins Cobuild Dictionary of Idioms” [Sinclair, 1997], A.V. Kuninning “Англо-русский фразеологический словарь” [Kunin, 1984], “Oxford Dictionary of Idioms” [Siefring, 2004], “Oxford Dictionary of Proverbs” [Speake, 2008], “McGraw-Hill’s Dictionary of American Idioms and Phrasal Verbs” [Spears, 2005], K.Ammerning “American Heritage Dictionary of Idioms” [Ammer, 1997] kabi lug‘atlaridan, o‘zbek tilidagi manbalarini esa H.Berdiyev va R.Rasulovlarning “O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati” [Berdiyev & Rasulov, 1984], Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlarning “Ma’nolar mahzani” [Shomaqsudov & Shorahmedov, 2018], M.Sodiqovning “Краткий узбекско-русский фразеологический словарь” [Sadykova, 1989], Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva tahriri ostidagi “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati” [Rahmatullayev va boshq., 2022], Sh.Turdimov mas’ul muharrirligidagi “O‘zbek xalq maqollari” [Turdimov, 2005] kabi materiallar doirasida amalga oshirildi:

1. INSON – TARIXIY ANTROPONIM kognitiv modeli asosida shakllangan va ma’no ko‘chishiga uchragan antroponimik komponentli frazeologik birliklar. Bunda INSON konsepti maqsad maydoni, TARIXIY ANTROPONIM komponenti esa manba maydoni hisoblanib, tarixiy shaxslarga xos xususiyatlar o‘xshashlik asosida boshqa bir insonlarga metaforik qo‘llanadi. Ingliz tilida mazkur model asosida shakllangan frazeologik birliklar sifatida *as happy as Larry, the admirable Crichton, as rich as Croesus, moaning Minnie, Vandyke beard, a Beau Brummel, a coal-oil Johnny, another Richmond in the field, as game as Ned Kelly, Benedict Arnold, Caesar’s wife, Jack Ketch*; o‘zbek tilida esa *padarkush Abdullatif, Aflotun miya, sog‘ odamga Sugrotning keragi yo‘q, Devonayi Mashrab* kabilar aniqlandi:

Masalan, ingliz tilida “inson ruhiy holati” leksik kategoriyasiga kiruvchi *as happy as Larry* antroponimik komponentli frazeologik birligi haddan tashqari sevingan, og‘zi qulog‘ida, o‘zida yo‘q xursand bo‘lgan kishilarni tasvirlaydi: “*I gave her a police badge to wear on her sleeve and she is as happy as Larry*” [Collins, n.d.]. Ushbu frazeologik birlik tarkibida ishtirok etgan antroponim 19-asrda yashagan avstraliyalik bokschi Leri Folidan kelib chiqqan bo‘lib, u hech qachon boks musobaqasida yutqazmagan va o‘zining so‘nggi musobaqadagi ishtirokida qozongan g‘alaba evaziga ming funt sterling miqdorida taqdirlangan. Uning ayni emotsional

jarayoni, ya'ni xursandchiligi inobatga olinib yuqoridagi gapda politsiyalik nishonini olgan kishi Leri Folidek o'zida yo'q xursand bo'lganligini ko'rsatadi.

O'zbek tilida mazkur model asosida shakllangan *Padarkush Abdullatif* antroponimik komponentli frazeologik birligi ham mavjud bo'lib [Gaybullayeva, 2022; 197], u o'z otasiga yomon munosabatda bo'lgan kishi, o'z otasining obro'siga putur yetkazgan kishini tasvirlaydi: "*Fojia Mirzo Ulug'bekning o'limi bilan tugaydi, biroq o'quvchi yoki tomoshabin bu manzaradan tushkunlikka tushmaydi, aksincha, buyuk olim ishlarining davom etishiga ishonadi, **Abdullatif kabi padarkush** g'alamislarning umri qisqa ekanligiga iymon keltiradi*" [Olimov va boshq., 2014]. Ushbu frazeologik birlik tarkibida qo'llanilgan Abdullatif shayxzoda kishi bo'lib, ukasi Alouddavlaga otasining mehri o'zga ekanligini sezib, hasad o'tida unga qarshi isyon qilgan va saroy amaldorlarining gapiga kirib otasini o'ldirganligi tarixiy ma'lumotlardan bizga ma'lum. Uning bunday xatti-harakati inobatga olinib, yuqoridagi gapda Abdullatif kabi otasiga shafqatsiz munosabatda bo'lgan kishilarni nazarda tutadi.

Muayyan tarixiy shaxslarning ruhiy holati, aqliy salohiyati, ijtimoiy ahvoli, ijobiy va salbiy xulq-atvori, tashqi ko'rinishi kabi xususiyatlarning o'xshashlik asosida boshqa insonlarga metaforik qo'llanilishi ingliz hamda o'zbek tillari antroponimik komponentli frazeologik birliklarida kuzatildi.

2. INSON – DINIY ANTROPONIM kognitiv modeli bo'yicha shakllangan va ma'no ko'chishiga uchragan antroponimik komponentli frazeologik birliklar. Bunda INSON konsepti maqsad maydoni, DINIY ANTROPONIM komponenti esa manba maydoni hisoblanib, diniy adabiyotlarda tilga olingan obrazlarga xos xususiyatlar o'xshashlik asosida boshqa bir insonlarga metaforik qo'llanadi. Ingliz tilida mazkur model asosida shakllangan frazeologik birliklar sifatida *as patient as Job, a doubting Thomas, a Daniel come to judgement, a man of Belial, Balaam's ass, Benjamin of the family, Job's post, Judas hair*, o'zbek tilida esa *Xizr nazar qilgan* kabilar aniqlandi:

Misol uchun, ingliz tilida "insonning xulq-atvori" leksik kategoriyasiga kiruvchi *as patient as Job* antroponimik komponentli frazeologik birligi sabr-toqatli, chidamli va bardoshli kishilarni tasvirlaydi: "*He is so impossibly long-winded that you need to be **as patient as Job** to listen to him without making some excuse to leave*" [Words Coach, n.d.]. Ushbu frazeologik birlik tarkibida ishtirok etgan Iyov Bibliyada tasvirlangan obrazlardan biri bo'lib, u ayriliq va katta yo'qotishdan chekkan azob-uqubatlarini sabr-toqat va bardosh bilan yengib chiqqan. Uning bunday fazilati inobatga olinib, yuqoridagi gapda sergap va mijg'ov kimsaning oldida soatlab turish uchun kishiga Iyovdek katta sabr-toqatli va chidam-bardoshli bo'lish kerakligini nazarda tutadi.

O'zbek tilida mazkur kognitiv model asosida qurilgan hamda "insonning taqdiri" leksik kategoriyasiga kiruvchi *Xizr nazar qilgan* antroponimik komponentli frazeologik birligi baxt qushi qo'ngan va kelajagi porloq kishilarni tasvirlaydi: "*Nuriddin Shukurov **Xizr nazar qilgan** tug'ma iqtidorga ega olim va pedagog edi. Akademik shoir G'afur G'ulomga shogird tushib, uning duosini olgan Nuriddin aka o'zidan katta adabiy meros qoldirdi*" ["G'afur G'ulomning duosini olgan", 2023]. Ushbu frazeologik birlik tarkibida ishtirok etgan Xizr payg'ambar Islom rivoyatlarida

tilga olinib, dengizda suzuvchilarga homiylik qilishi, maxsus duolar bilan chaqirilsa, yordamga kelishi, dehqon dalasiga yoki xirmoniga nazar tashlasa, hosil barakali bo'lishi sifatida talqin qilinadi. Uning ushbu fazilatlarini inobatga olinib, yuqoridagi gapda Nuriddin Shukurovning tug'ma iqtidorga egaligi va kelajagi porloq ekanligi Xizr payg'ambarning unga nazari tushganligini kishi ongida konseptuallashtiradi.

Diniy adabiyotlarda tilga olingan muayyan obrazlarning ijobiy va salbiy xulq-atvori, aqliy salohiyati, ijtimoiy munosabatlari va tashqi ko'rinishi kabi xususiyatlar o'xshashlik asosida boshqa insonlarga metaforik qo'llanilishi ingliz tili antroponimik komponentli frazeologik birliklarida kuzatilgan bo'lsa, payg'ambarlarning ularga xos xususiyatlar inobatga olinib, insonning taqidirini tasvirlash uchun metaforik qo'llanilishi faqat o'zbek tilida kuzatildi.

3. INSON – FOLKLORIK ANTROPONIM kognitiv modeli asosida shakllangan va ma'no ko'chishiga uchragan antroponimik komponentli frazeologik birliklar. Bunda INSON konsepti maqsad maydoni, FOLKLORIK ANTROPONIM komponenti esa manba maydoni sanalib, xalq og'zaki ijodi durdonalarida kuylangan qahramonlarga xos xususiyatlar boshqa bir insonlarga metaforik qo'llanadi. Ingliz tilida mazkur model asosida shakllangan frazeologik birliklar sifatida *Tom Thumb*, *Contrary Mary*, *A peeping Tom*; o'zbek tilida esa *zamona oxir bo'lsa, echkinining otini Abdukarim qo'yadilar*; *Layli va Majnun*; *so'zning Luqmon tilidan aytilgani* – *xo'b* kabilar aniqlandi.

Masalan, “insonning tashqi ko'rinishi” leksik kategoriyasiga kiruvchi ingliz tilidagi *Tom Thumb* antroponimik komponentli frazeologik birligi bo'yi juda past, mitti odamlarni tasvirlaydi: *“I used to feel so hopeless that I was like **Tom Thumb** who has to hide under a chair so as not to be trodden on”* [Dictionary.com, n.d.]. Ushbu frazeologik birlik “Tom ismli mittivoy” ingliz xalq ertagidagi mitti bolakayning tashqi jismoniy holati bilan bog'liq bo'lib, unda tasvirlanishicha, Tom ismli bu mittichaning bo'yi otasining bosh barmog'iga teng bo'lgan va hatto sigir o'zi bilmagan holda uni gumdon qilar darajada mitti bo'lgan. Uning ana shunday bo'yi mittiligi inobatga olinib, yuqoridagi gapning muallifi o'zini Tom ismli mittivoydek his qiladiki, hatto hech kim uni beixtiyor bosib olmasligi uchun stol tagida yashirinishga majbur bo'lganini ko'rsatadi.

Mazkur kognitiv model asosida shakllangan va “insonning xulq-atvori” leksik kategoriyasiga kiruvchi o'zbek tilidagi *“Zamona oxir bo'lsa, echkinining otini Abdukarim qo'yadilar”* yoki *“Qishloqda odam qolmasa, echkinining oti mulla Norqo'zi bo'ladi”* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklar zamona buzilsa, yomon odamlar quturishini, yaxshi odamlarga pand berishini, ularni har qanday yo'llar bilan ezishga harakat qilishini anglatadi: *“Ham zararliqda shular qatoridan qolishmaydirg'on, faqat o'z shaxsiy rohati yo'lida elni emib, qayg'usiz, g'oyasiz, **echkinining oti Abdukarim bo'lib**, yetmasa ig'vogarlik bilan kun kechiruvchi o'zining ba'zi stolparast, tanparast shaxslarimizdan kinoyadir”* [Qodiriy, 1926]. Ushbu frazeologik birlikning kelib chiqishi bir rivoyat bilan bog'liq. Unga ko'ra, Abdukarim degan qassob kishi bo'lib, u qo'y go'shtiga echki go'shtini aralashtirib kanoraga osib qo'yib, xaridorlarga echki go'shtini ham qo'y go'shti deb sotadi. Buni sezib qolgan odamlar Abdukarim qassobga

“echki” degan laqabni qo‘yib, hamma joyda uning ustidan kulib, qarg‘aydi. Ushbu rivoyat inobatga olinib, yuqoridagi gapda sho‘ro davridagi hukumatlarda ishlovchi xodimlarning echki laqabli Abdulkarim kabi faqat o‘z manfaatini o‘ylab ish tutadigan, xalqqa quloq solmaydigan kishilar ekanligi nazarda tutilgan.

Xalq og‘zaki ijodi durdonalarida kuylangan muayyan qahramonlarning ijobiy va salbiy xulq-atvori kabi xususiyatlar o‘xshashlik asosida boshqa insonlarga metaforik qo‘llanilishi ingliz va o‘zbek tillari antroponimik komponentli frazeologik birliklarida kuzatilgan bo‘lsa, mazkur qahramonlarning tashqi ko‘rinishi boshqa insonlarga metaforik qo‘llanilishi faqat o‘zbek tilida kuzatildi.

4. INSON – TIPIK ANTROPONIM kognitiv modeli bo‘yicha shakllangan va ma’no ko‘chishiga uchragan antroponimik komponentli frazeologik birliklar. Bunda INSON konsepti maqsad maydoni, TIPIK ANTROPONIM komponenti manba maydoni hisoblanadi. Ular asosan tez-tez uchraydigan ismlar bilan bog‘liq bo‘lib, muayyan bir xislat yoki fazilatga ega insonlarni tipiklashtiruvchi, umumlashtiruvchi ma’noga ega bo‘ladi. Ingliz tilida tipiklashtiruvchi ismlar sifatida *Jack, Jill, Jane, Tom, Dick, Harry* kabilar frazeologik birliklar tarkibida ishtirok etsa, o‘zbek tilida *Ali, Vali, Hasan, Husan, Ismat, Toshmat, Mirsharif, Masharif, Ahmad, Fozil, Shoniyoz* kabilar tipiklashtiruvchi ismlar sifatida frazeologik birliklar tarkibidan joy oladi.

Misol uchun, ingliz tilidagi *“A good Jack makes a good Jill”, “Every Jack shall have his Jill”, “All shall be well, Jack shall have Jill”, “Jack and Jill”* antroponimik komponentli frazeologik birliklari tarkibida ishtirok etgan *Jack* va *Jill* antroponimlari ingliz jamiyatida yashaydigan har qanday ikki er-xotinlarni tipiklashtiradi: *“I never had any regrets about getting married, not for one minute. A good Jack makes a good Jill, and your father and I made each other feel loved every day”* [Farlex Dictionary of Idioms, n.d.b]. Ushbu frazeologik birlik urning xarakteri, yurish-turishi qanday bo‘lsa, xotini ham shunday degan ma’noni bildiradi.

O‘zbek tilidagi *“Alining alamini Validan olmoq”, “Aybni Ali qiladi, kaltakni Vali yeydi”, “Har kim o‘z aybini bilsa Vali bo‘ladi”, “Ali jinni Ali jinnining bari jinni”, “Ishni Ismat qiladi, lofni Toshmat uradi”, “Eshmatning o‘chini Toshmatdan olmoq”, “Ishni qilar Masharif, mushtni yeydi Mirsharif”, “Ishni qilar Mahamadsharif, go‘shini yeb terib-terib”* kabi antroponimik komponentli frazeologik birliklar tarkibida ishtirok etgan *Ali, Ismat (Eshmat), Masharif, Mahamadsharif* antroponimlari ko‘pincha mug‘ombir, hiylakor, nomard va yolg‘onchi hamda janjalkash insonlarning, *Vali, Toshmat, Mirsharif* antroponimlari esa soddadil, beayb va rostgo‘y insonlarning umumiy, tipik obrazlari sifatida kishi ongida konseptuallashadi: *“Xullas, hamma ish go‘yo Vahob Ro‘zimatovning o‘ziga qolgan. Shunga jig‘ibiyron. Alining alamini Validan olib, hovuridan tushadi. Boshqa iloji yo‘q. Jini qo‘zib turgan paytda unchamuncha gap ham yoqmaydi: siltab tashlaydi, jerkib beradi”* [Rahmon, 2017]. Ushbu gapda alamini bironidan oladigan Ali obrazi Vahob Ro‘zimatovni nazarda tutsa, beayb Vali obrazi muallifni, ya’ni Sulaymon Rahmonni ko‘zda tutadi.

Mazkur kognitiv model bo‘yicha shakllangan ingliz tilidagi antroponimik komponentli frazeologik birliklar asosan “insonning ijtimoiy munosabatlari” assotsiativ ma’nosini hosil qilsa, o‘zbek tilidagi mazkur frazeologik birliklar ko‘pincha

“insonning xulq-atvori” leksik kategoriyasiga mansubligi ayon bo‘ldi.

5. PREDMET – FOLKLORIK ANTROPONIM kognitiv modeli asosida shakllangan va ma’no ko‘chishiga uchragan antroponimik komponentli frazeologik birliklar. Bunda PREDMET konsepti maqsad maydoni, FOLKLORIK ANTROPONIM komponenti esa manba maydoni hisoblanib, xalq og‘zaki ijodi durdonalarida kuylangan qahramonlar o‘zlari egalik qilgan predmetlarga xos xususiyatlar boshqa bir predmetlarga o‘xshashlik asosida metaforik qo‘llanadi. Ingliz tilida mazkur model asosida shakllangan frazeologik birliklar sifatida *Fortunatus’ cap*, *Fortunatus’ purse*, *A Mother Hubbard*; o‘zbek tilida esa *Bazmi Jamshid*, *Olovuddinning sehrli chirog‘i* kabilar aniqlandi.

Masalan, ingliz tilida mazkur kognitiv model asosida shakllangan *Fortunatus’ purse* antroponimik komponentli frazeologik birligi bitmas-tuganmas boylik, hech qachon puli tugamaydigan hamyonni anglatadi: “*You have heard of **Fortunatus’ purse**, Miladi? Ah, so! Would you be surprised to hear that, with three of these leetle handkerchiefs, you shall make the purse of Fortunatus, quite soon, quite easily?*” [Carroll, 2000]. Ushbu frazeologik birlik nemis ertaklarida tasvirlangan Fortunatus ismli obraz bilan bog‘liq bo‘lib, ertakda aytilishicha, Fortunatus o‘rmonda omad va baxt xudosiga yo‘liqadi. Undan hech qachon tangasi tugamaydigan hamyonni oladi va hamyon umrbod unga tegishli bo‘ladi. Yuqoridagi gapda qo‘l ro‘molchalarning Fortunatusning sehrli hamyoni kabi bitmas-tuganmas hamyonga aylantirilishi ko‘zda tutilgan.

Ayni model asosida shakllangan o‘zbek tilidagi “*Bazmi Jamshid*” antroponimik komponentli frazeologik birligi hashamatli bazm, ko‘rkam dasturxon yoki maishatbozlikni anglatadi: “***Bazmi Jamshid** davom etibdi. Umarxon toliqib, mudoqqqa ketibdi... Bir mahal ko‘zini ochsa, qo‘sh o‘tli foytonda ketayotganmish. Biydek dala... Hammayoq zulmat... Osmonda yulduzlar... Navkarlar otining tuyog‘i gursillaydi...*” [Hoshimov, 2022]. Ushbu frazeologik birlik tarkibida ishtirok etgan Jamshid Eronning qadimgi afsonaviy juda boy podshosining ismi bo‘lib, u ko‘pincha bitmas-tuganmas boylik, farovon hayot ramzi sifatida qaraladi. Yuqoridagi gapda qo‘llanilgan “*Bazmi Jamshid*” frazeologik birligi orqali esa kishi Amir Umarxonning uyushtirgan bazmi shohona va tantanavor tus olganini anglaydi.

6. PREDMET – TIPIK ANTROPONIM kognitiv modeli bo‘yicha shakllangan va ma’nosi ko‘chimga uchragan antroponimik komponentli frazeologik birliklar. Bunda PREDMET konsepti maqsad maydoni, TIPIK ANTROPONIM komponenti manba maydoni hisoblanib, bir necha insonlarning umumiy obrazini tipiklashtiruvchi kishilar o‘zlari egalik qilgan predmetlarga xos xususiyatlar o‘xshashlik asosida boshqa predmetlarga metaforik qo‘llanadi. Ingliz tilida mazkur model asosida shakllangan frazeologik birliklar sifatida *A Dear John letter*, *Yellow Jack*, *Uncle Tom Cobley and all*, *Long Tom*, *Brown Bess*, *Brown Betty* kabilar aniqlandi. O‘zbek tilida esa bunday misollar aniqlanmadi.

Misol uchun, ingliz tilidagi *A Dear John letter* antroponimik komponentli frazeologik birligi ajrashish istagini bildirgan ayol yoki qizdan kelgan maktubni anglatadi: “*Mike was clearly upset when he received a **Dear John letter** from his*

girlfriend, Caroline. He thought their relationship was going well and did not expect it to end so suddenly” [Farlex Dictionary of Idioms, n.d.a]. Ushbu frazeologik birlikning kelib chiqishi bevosita ikkinchi jahon urushi davrida amerikalik askarlarning o‘z ayollaridan qabul qilib olgan maktublarga borib taqaladi. Tarixdan ma’lum bo‘lishicha, urushga jo‘nagan askarlarni kutishdan charchagan ayol va rafiqalari ulardan ajrashish va boshqasi bilan turmush qurish istagini bildirib maktub yozishadi. Tabiiyki, ko‘plab maktublarning har biri “*Dear John*”, “*My dearest John*” (Azizim Jon, Suyukli azizim Jon) jumalari bilan boshlanadi. Ushbu maktublarni tashish bilan shug‘ullangan pochta xodimlari esa mazkur jumalar bilan boshlanuvchi maktubning maqsadini o‘sha ondayoq anglagan va ularni “*Dear John letters*” (Qadrli Jon maktublari) deb atashgan. Maktubning ana shunday mazmuni inobatga olinib, yuqoridagi gapda Maykning o‘z yori Karolindan *A Dear John letter* kabi munosabatlari yaxshi ketayotganligiga qaramay kutilmaganda ajrashish istagini bildirgan maktubni qabul qilib olganligi nazarda tutilgan.

7. ISH-HARAKAT – TARIXIY ANTROPONIM kognitiv modeli asosida shakllangan va ma’no ko‘chishiga uchragan antroponimik komponentli frazeologik birliklar. Bunda ISH-HARAKAT konsepti maqsad maydoni, TARIXIY ANTROPONIM komponenti manba maydoni hisoblanib, tarixiy shaxslar o‘zlarining tutgan bevosita yoxud tashqi ta’sir asosida bilvosita xatti-harakatlariga xos xususiyatlar o‘xshashlik asosida boshqa bir insonlarning xatti-harakatlariga metaforik qo‘llanadi. Ingliz tilida mazkur model asosida shakllangan frazeologik birliklar sifatida *Do a Melba*, *Let George do it*, *Appeal from Philip drunk to Philip sober*, *Appeal to Caesar*, *Break Priscian’s head*, *Do a Lord Lucan*, *Have had the Richard*, *Stand Sam*; o‘zbek tilida esa *Berdisini aytguncha urib o‘ldirmoq*, *Berdisini aytmoq* kabilar aniqlandi.

Masalan, ingliz tilidagi *Do a Melba* frazeologik birligi iste’fodan qaytib kelib ishlamoq yoki bir necha bor xayrlashmoq ma’nosini anglatadi: “*How many “farewell” concerts has that singer had? Every time he ends up doing a Melba!*” [Farlex Dictionary of Idioms, n.d.c]. Ushbu frazeologik birlikning ma’nosi uning tarkibida bevosita ishtirok etgan avstraliyalik opera sopranosi Deym Melbaning xatti-harakati bilan bog‘liq. Deym xonim 1924-yilda sahnadagi uzoq vaqt operalik faoliyatidan so‘ng iste’foga chiqishini e’lon qiladi, ammo 1926-yilda Kovent Gardenda, 1928-yilda Sidneyda yana sahnaga chiqib zaldagilar bilan vidolashadi, oradan ko‘p vaqt o‘tmay Angliyada yana sahnaga chiqadi. Uning bunday xatti-harakati inobatga olinib, yuqoridagi gapda konsertdagi san’atkorning Deym xonim kabi bir necha bor xayrlashuv konsertini tashkillashtirgani ko‘zda tutilgan.

Bunday model asosida shakllangan o‘zbek tilidagi “*Berdisini aytguncha urib o‘ldirmoq*” antroponimik komponentli frazeologik birligi gapirib bo‘lishini kutmay, chidamay biror narsa demoq yoki qaror chiqarmoq ma’nosini anglatadi: “*Berdisini aytguncha shoshmang*, xo‘jayin, (yong‘in) omborga qo‘rg‘ondan o‘tibdi. Og‘ilxonaga ombordan o‘tgan bo‘lsa kerak. Shunaqa qilib bir-biriga tutashib ketganda” [G‘ulom, 2004]. Ushbu frazeologik birlik tarkibida ishtirok etgan *Berdi* ismining to‘liq shakli *Xudoyberdi* bo‘lib, uning kelib chiqishi shoir Mashrabga nisbat berib aytiladigan bir latifaga bog‘liq. Unga ko‘ra, mullalar Mashrabdan ismini so‘raganida

u “Xudoy...” deyishi bilan uni do‘pposlab qoziga olib boradi va uni kofirga chiqaradi. Uni so‘roq qilganlarida esa “Berdisini aytgunimcha urib o‘ldirmoqchi bo‘ldilar, mening ismim – Xudoyberdi” degan ekan. Shundan kelib chiqqan holda yuqoridagi gapda xo‘jayinning yong‘in ombordan chiqmagan degan fikri *Berdisini aytguncha shoshib* qaror chiqarganini ko‘zda tutadi.

8. ISH-HARAKAT – DINIY ANTROPONIM kognitiv modeli asosida shakllangan va ma‘no ko‘chishiga uchragan antroponimik komponentli frazeologik birliklar. Bunda ISH-HARAKAT konsepti maqsad maydoni, DINIY ANTROPONIM komponenti esa manba maydoni hisoblanib, diniy adabiyotlarda qayd etilgan obrazlarga o‘tkazilgan tashqi ta‘sir asosida ular bilan assotsiativ bog‘liqlikka kiradigan bilvosita xatti-harakatlariga xos xususiyatlar o‘xshashlik asosida boshqa bir insonlarning xatti-harakatlariga metaforik qo‘llanadi. Ingliz tilida mazkur model asosida shakllangan frazeologik birliklar sifatida *Rob Peter to pay Paul, Drive like Jehu, Raise Cain*; o‘zbek tilida esa *Jonini Jabborga bermog‘i, Isoning alamini Musodan olmoq* kabilar aniqlandi.

Misol uchun, ingliz tilidagi “*Rob Peter to pay Paul*” antroponimik komponentli frazeologik birligi bir qarzdin qutulib, boshqasiga duchor bo‘lmoq ma‘nosini anglatadi: “*My mother told me to stop using my credit cards to pay my debts because I was just robbing Peter to pay Paul*” [The idioms, n.d.]. Ushbu frazeologik birlik tarkibida ishtirok etgan Pyotr va Pavel Iso payg‘ambarning havoriylari sanalib, o‘rta asrlarda Angliyada ular sharafiga cherkovlar barpo etilgan. Diniy afsonaga ko‘ra, Angliyada dindor kishilar Londondagi avliyo Pavel cherkovini ta‘mirlash uchun Vestminsterdagi avliyo Pyotr cherkovi mol-mulkidan foydalanishadi, lekin, shu bilan birga, ular avliyo Pyotr cherkovidan olgan qarzlarini uzishlari kerak bo‘lgan. Ana shunday vaziyat inobatga olinib, yuqoridagi gapda muallifning o‘z qarzlarini uzishi uchun kredit olgani, lekin shu bilan birga kreditga to‘lov qilishi kerakligi avliyo Pyotrdan qarz olib avliyo Pavelga to‘lagani, ammo shu bilan birga avliyo Pyotrdan qarzini uzishi kerakligiga qiyos qilingan.

Mazkur model asosida shakllangan o‘zbek tilidagi “*Jonini Jabborga bermog‘i*” antroponimik komponentli frazeologik birligi bor kuchini safarbar qilgani holda mehnat qilmoq ma‘nosini anglatadi: “*Maxsum, tuzingizni ichgan bo‘lsak, tekinga ichmadik, jonimizni Jabborga berib xizmatlaringizni qildik*” [Anorboyev, 1962]. Ushbu frazeologik birlik tarkibida ishtirok etgan Jabbor Ollohga berilgan sifatlardan biri sanalib, kishi jonini Jabborga bermog‘i – bu o‘zini Haq yo‘liga bag‘ishlab sidqidildan, vijdonan mehnat qilmoq ma‘nosini anglatadi. Yuqoridagi gapda esa muallif maxsumga sidqidildan va hayotini uning yo‘liga bag‘ishlab xizmat qilganini o‘z jonini Jabborga berib mehnat qilganini nazarda tutadi.

9. MAKON – DINIY ANTROPONIM kognitiv modeli asosida shakllangan va ma‘no ko‘chishiga uchragan antroponimik komponentli frazeologik birliklar. Bunda MAKON konsepti maqsad maydoni, DINIY ANTROPONIM komponenti esa manba maydoni hisoblanib, diniy adabiyotlarda rivoyat qilinayotgan obrazlarning o‘z ta‘sirini qoldirgan yoki ular bilan bog‘liq joy-makonlariga xos xususiyatlar o‘xshashlik asosida boshqa joy-makonlarga metaforik qo‘llanadi. Ingliz tilida mazkur

model asosida shakllangan frazeologik birlik sifatida *In Abraham's bosom* aniqlandi. O'zbek tilida esa bunday misollar aniqlanmadi.

Masalan, ingliz tilidagi "*in Abraham's bosom*" antroponimik komponentli frazeologik birligi ruh sokinlik topgan makonni anglatadi: "*I would as soon have thought of being cheerful in Abraham's bosom as in the palace of an Emperor*" [Farlex Dictionary of Idioms, n.d.d]. Ushbu frazeologik birlik tarkibida ishtirok etgan Avraam Bibliyada tasvirlangan obrazlardan biri sanalib, Injil rivoyatlarida naql qilinishicha, o'sha davr an'anasiga ko'ra ota-onalar o'z uyiga charchoq va holdan toygan holda qaytgan farzandlarini bag'riga bosib yaxshi hordiq olishi uchun kechasi bilan uxlamay qarab chiqqan. Avraam ham shular qatori o'z uyiga holdan toyib qaytgan bolalariga g'amxo'rlik qilgan va keyinchalik boshqa diniy adabiyotlarda ruh sokinlik topgan joyni ifodalash uchun majozan uning ismi qo'llanila boshlangan. Yuqoridagi gap amerikalik yozuvchi M.Tveyning "Sodda odamlar xorijda" ("The Innocents Abroad") nomli asaridan olingan parcha bo'lib, unda muallifning xorijga safari tasvirlanadi. Mazkur gapdan ayonki, muallif Rossiya imperatori saroyini safardan qaytib hordiq olishi uchun "*Abraham's bosom*" kabi sokin joy deb tasavvur qilganligini ko'rishimiz mumkin.

10. ZAMON – DINIY ANTROPONIM kognitiv modeli asosida shakllangan va ma'nosi ko'chimga uchragan antroponimik komponentli frazeologik birliklar. Bunda ZAMON konsepti maqsad maydoni, DINIY ANTROPONIM komponenti esa manba maydoni hisoblanib, diniy adabiyotlarda naql qilingan obrazlar o'z ta'sirini qoldirgan yoki yashagan zamoni o'xshashlik asosida boshqa zamonga metaforik qo'llanadi. Ingliz tilida mazkur model asosida shakllangan frazeologik birliklar sifatida *Since Adam was a boy, As old as Adam, St. Martin's summer*; o'zbek tilida esa *Odam Atodan qolgan* kabilar aniqlandi.

Misol uchun, ingliz tilida mazkur kognitiv model asosida shakllangan *Since Adam was a boy, As old as Adam* kabi frazeologik birliklar qadim zamonlardan beri, juda qadimgi, ko'hna kabi ma'nolarni anglatadi: "*What does Grandma mean when she says she has been teaching third grade since Adam was a boy?*" [Farlex Dictionary of Idioms, n.d.f].

O'zbek tilida ham mazkur kognitiv model asosida shakllangan *Odam Atodan qolgan* frazeologik birligi mavjudki, u ham almisoqdan qolgan, ko'hna va qadimiy ma'nolarini anglatadi: "*Men balki yanglisharman. Yanglishmoq Odam Atodan qolgan meros*" [Oybek, 2019].

Har ikkala tildagi mazkur frazeologik birliklarning ma'nosi uning tarkibida ishtirok etgan Odam Atoning yashagan zamoniga nisbat berilib, u bilan qo'llanilgan gaplarga mubolag'a, bo'rttirish kabi qo'shimcha uslubiy vazifani yuklaydi.

Shuningdek, ingliz va o'zbek tillarida kulgi, qaror, g'alaba, yanglish, vahima, xiyonat, qarg'ish, erkinlik, istak, o'jizlik, reja, qasos, sarob, xavotir, go'zallik, tenglik, birdamlik singari turli-tuman mavhum tushunchalarni anglatuvchi antroponimik komponentli frazeologik birliklar mavjudligi kuzatildi. Mazkur model asosida shakllangan ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

Konsept	Ingliz tilidagi antroponimik komponentli frazeologik birliklar	O'zbek tilidagi antroponimik komponentli frazeologik birliklar
Sarob	<i>A Barmecide feast; Alnaschar's dream</i>	
G'alaba	<i>A Cadmean victory; A Pyrrhic victory</i>	
Xiyonat	<i>A Judas kiss</i>	
Tafakkur	<i>A King Charles' head</i>	
Javob	<i>A Roland for an Oliver</i>	<i>Aliga Bali keladi; Arpa ekan, arpa oladi, bug'doy ekan, bug'doy oladi, Abdullaxon nimangni oladi?; Jabr qilma yetimga, uchragaysan Mustafoning o'qiga</i>
Intizom	<i>According to Cocker; According to Hoyle</i>	
Nafs	<i>Bacchus has drowned more men than Neptune</i>	<i>Qizilni ko'rsa Xizr ham yo'ldan ozadi</i>
Istak	<i>Barkis is willing; Christ be with you! Promethean fire</i>	<i>Muhammad payg'ambar madadkor bo'lsin; Xizrni yo'qlasam bo'larkan</i>
Qaror	<i>Between Scylla and Charybdis; Buridan's ass; Hobson's choice</i>	<i>Yo Hasan, yo Husan</i>
Hissiyot	<i>By George! By Jesus!</i>	
Xavf-xatar	<i>Cassandra warnings; Daniel in the lion's den; Katie bar the door</i>	<i>Yettining biri - Xizr</i>
Yanglish	<i>Homer sometimes nods; A Freudian slip</i>	
Kulgi	<i>Homeric laughter</i>	
Reja	<i>If the mountain will not come to Muhammad, then Muhammad must go to the mountain; Penelope's web</i>	
G'azab	<i>Like the devil looking over Lincoln</i>	
Jazo	<i>Lynch law</i>	<i>Aybni Ali qiladi, kaltakni Vali yeydi; Ishni qilar Masharif, mushtni yeydi Mirsharif; Mulla Mirashir qilmishiga yarashir</i>
Muhabbat	<i>Platonic love</i>	<i>Layli – har kimning mayli</i>
Go'zallik		<i>Laylini ko'rish uchun Majnunning ko'zlari kerak</i>
Hayot	<i>The life of Riley</i>	
Xavotir	<i>What will Mrs. Grundy say?</i>	
Vahima		<i>Bo'ji keldi, bo'ji keldi, Chingiz bilan Jo'ji keldi</i>
Janjal		<i>Ali jinni, Ali jinnining bari jinni; Oti yomon – Oypora</i>
Tenglik	<i>Even Stephens</i>	<i>Alixo'ja – Xo'jaali</i>
Zulm		<i>Asfandiyor xon bo'ldi, og'zi-burnim qon bo'ldi; Mahmudning qadami yetgan yerda o't o'smas</i>
Muammo		<i>Eshmat ketib, Toshmat keldi</i>
Sabr	<i>The patience of Job</i>	<i>Omon bo'lsak ko'ramiz Halimaning holini</i>
Erkinlik		<i>Sulaymon o'ldi – devlar qutuldi</i>

Biz mazkur kognitiv model yordamida shakllangan ayrim frazeologik birliklarning metaforik qo'llanilishi ko'rib chiqiladi:

1. ABSTRAKSIYA – DINIY ANTROPONIM kognitiv modeli bo'yicha shakllangan va “xiyonat” leksik kategoriyasiga kiruvchi ingliz tilidagi “*A Judas kiss*” antroponimik komponentli frazeologik birligi xiyonat yoki shunga o'xshash xatti-harakatlarni anglatadi: “*Do not try to be my friend now, it is just a **Judas kiss**! I know you are trying to get more information out of me so you can report it to the headmaster!*” [Farlex Dictionary of Idioms, n.d.e]. Ushbu frazeologik birlikning ma'nosi uning tarkibida ishtirok etgan Yahudoning xatti-harakati bilan bog'liq. Bibliyaga ko'ra, Yahudo ismli havoriy o'ttiz kumush evaziga Iso payg'ambarli o'liy kengashga tutib berishi kerak bo'lgan, o'zi bilan kelayotgan askarlarga esa undan bo'sa olish orqali tutib berishini va'da qilgan, so'ngra shu payg'ambar shogirdlaridan biri ekanligini rad etgan va shu orqali u Iso payg'ambarga xiyonat qilgan. Yuqoridagi gapda esa ko'proq ma'lumot olish uchun do'st tutingan kishini muallif ishonmaydi va buni *Judas kiss* kabi xiyonat ekanligini uqtiradi.

“Erkinlik” leksik kategoriyasiga kiruvchi o'zbek tilidagi “*Sulaymon o'ldi – devlar qutuldi*” antroponimik komponentli frazeologik birligi biror yurt yoki oila boshlig'i o'z yurti yo oilasini qattiqqo'llik bilan mahkam ushlab, tinchitib turgan, vaqti-soati yetib olamdan o'tgach, yurt yomonlari yoxud noqobil farzandlar o'z yomonliklarini qila boshlashini anglatadi: “*Negaki, shanba va yakshanba nazorat qiluvchi jamiki idoralar berk bo'ladi, **Sulaymon o'ldi, devlar qutuldi deb bu shaytonlar o'g'irlikni uch-to'rt baravar ko'paytirib yuborishadi***” [To'xtaboyev, 2017]. Ushbu frazeologik birlik bevosita kishi ongida Sulaymon payg'ambar bilan bog'liq bir diniy rivoyatni faollashtiradi. Unga ko'ra, Sulaymon payg'ambar “Bayt ul-muqaddas”ni qurdirganda devlarni majbur qilib ishlatadi. U to'lmorat bitguniga qadar hech qayoqqa qimirlamay, hassasiga tayanib turadi. Devlar Sulaymondan qo'rqanlaridan hech qayoqqa ketmay noiloj ishlayveradi. Nihoyat, payg'ambarning jasadli bir yoqqa ag'anab tushgach, devlar har tarafga qochib ketadilar [Shomaqsudov & Shorahmedov, 2018; 346]. Ushbu rivoyat inobatga olinib, yuqoridagi badiiy asardan olingan parchada nazorat qiluvchi jamiki idoralar berk bo'lishidan foydalanib shaytonsifat odamlarning o'g'irlikni uch-to'rt baravar ko'paytirib olishi Sulaymon payg'ambarning o'lishi bilan devlar qutulib o'zboshimchalik qilishiga qiyos qilingan.

XULOSA

Shunday qilib, ingliz va o'zbek tillaridagi antroponimik komponentli frazeologik birliklar ko'pincha ko'chma ma'noga ega bo'lib, ularning tarkibida ishtirok etgan antroponimlarga xos xususiyatlar umumiylik asosida boshqa insonlarga yoki fenomenlarga qiyos qilinadi. Mazkur antroponimlar asosan u yoki bu shaxslarning yurish-turishi, xulq-atvori, mehnat faoliyati, ijtimoiy maqomi, aqliy salohiyati, tashqi ko'rinishi, jismoniy holati hamda ma'lum bir shaxsning faoliyati ta'siri natijasida boshqa bir narsa-predmet, zamon va makon, ish-harakat yoki mavhum tushunchalarni anglatib keladi. Bunda antroponimlar frazeologik birliklar tarkibida bir konseptual maydondan boshqa bir konseptual maydonga ko'chib o'tadi.

Zamonaviy tilshunoslikning kognitiv yoʻnalishida mazkur frazeologik birliklarning koʻchimga uchragan maʼnolari haqida soʻz yuritilganda asosan konseptual metafora faol kognitiv mexanizm sifatida ishtirok etadi. Konseptual metafora nazariyasida biz tasvirlamoqchi boʻlgan obekt oʻrin olgan maqsad maydoni hamda mazkur obyektни tasvirlash uchun asos boʻlgan manba maydonlari singari ikkita mental maydon ishtirok etadi. Mazkur mexanizm yordamida esa ingliz va oʻzbek xalqlarining muayyan bir insonlarni yoki boshqa bir fenomenni tasvirlash, oʻxshatish uchun, ularga badiiylik-ifodaviylik baxsh etish uchun tarixiy shaxslar, mifologik va diniy obrazlar, badiiy adabiyot va xalq ogʻzaki ijodi qahramonlari hamda oddiy xalq vakillariga xos belgilaridan foydalanishining oʻziga xos jihatlarini koʻrishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdusamadov, Z.N. (2022). Ingliz va oʻzbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari. *Filol. fan. fals. dok. diss.* Toshkent: Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston milliy universiteti.
2. Ammer, C. (1997). *The American heritage dictionary of idioms*. Boston: Houghton Mifflin.
3. Anorboyev, S. (1962). *Oqsoy*. Toshkent: “Oʻqituvchi” NMIU.
4. Ashurova, D., & Galiyeva, M. (2018). *Cognitive linguistics*. Tashkent: VneshInvestProm.
5. Baxronova, D.K. (2017). Antropozoomorfizmlarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlari (oʻzbek va ispan tillari materialida). *Filol. fan. fals. dok. diss.* Toshkent: Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti.
6. Berdiyrov, H., & Rasulov, R. (1984). *Oʻzbek tilining paremiologik lugʻati*. Toshkent: “Oʻqituvchi” NMIU.
7. Dictionary.com. (n.d.). Tom Thumb. In *Dictionary.com*. Retrieved December 5, 2024, from <https://www.dictionary.com/browse/tom-thumb>.
8. Dobrovolʻskij, D., & Piirainen, E. (2005). Cognitive theory of metaphor and idiom analysis. *Jezikoslovlje*, 6(1), 7–35.
9. Farlex Dictionary of Idioms. (n.d.a). a Dear John letter. In *The Free Dictionary by Farlex*. Retrieved December 3, 2024, from <https://idioms.thefreedictionary.com/a+Dear+John+letter>.
10. Farlex Dictionary of Idioms. (n.d.b). a good Jack makes a good Jill. In *The Free Dictionary by Farlex*. Retrieved December 3, 2024, from <https://idioms.thefreedictionary.com/a+good+Jack+makes+a+good+Jill>.
11. Farlex Dictionary of Idioms. (n.d.c). do a Melba. In *The Free Dictionary by Farlex*. Retrieved December 2, 2024, from <https://idioms.thefreedictionary.com/do+a+Melba>.
12. Farlex Dictionary of Idioms. (n.d.d). in Abraham’s bosom. In *The Free Dictionary by Farlex*. Retrieved December 2, 2024, from <https://idioms.thefreedictionary.com/in+Abraham%27s+bosom>.
13. Farlex Dictionary of Idioms. (n.d.e). Judas kiss. In *The Free Dictionary by Farlex*. Retrieved December 2, 2024, from <https://idioms.thefreedictionary.com/a+Judas+kiss>.
14. Farlex Dictionary of Idioms. (n.d.f). since Adam was a boy. In *The Free Dictionary by Farlex*. Retrieved December 2, 2024, from <https://idioms.thefreedictionary.com/a+Judas+kiss>.
15. Gaybullayeva, D.F. (2022). Phraseological units as national-cultural specifics of the English and Uzbek languages. *Oriental Art and Culture*, 3(2), 194–200.
16. Hoshimov, Oʻ. (2022). *Daftar hoshiyasidagi bitiklar*. Toshkent: “Nurli ziyo” nashriyoti.
17. Carroll, L. (2000). *Alice’s adventures in wonderland*. USA: Colonial Press.
18. Cataldo, S. (2020). Cognitive approach to phraseological variation: some conceptualisations of mental illness in their translation into Spanish and German. In P.Mogorrón Huerta (Ed.), *Análisis multidisciplinar del fenómeno de la variación fraseológica en traducción e*

- interpretación* (MonTI Special Issue 6trans, pp. 65–93). Alicante: Universidad de Alicante. <https://doi.org/10.6035/MonTI.2020.ne6.2>.
19. Cocchiarella, N.B. (1996). Conceptual realism as a formal ontology. In R.Poli & P.Simons (Eds.), *Formal ontology* (pp. 27–60). Dordrecht: Springer. https://doi.org/10.1007/978-94-015-8733-4_2.
 20. Collins. (n.d.). happy as Larry. In *Collins Dictionary*. Retrieved November 20, 2024, from <https://www.collinsdictionary.com/sentences/english/happy-as-larry>.
 21. Kovecses, Z. & Szabó, P. (1996). Idioms: A view from cognitive semantics. *Applied Linguistics*, 17(3), 326–355. <https://doi.org/10.1093/applin/17.3.326>.
 22. Kunin, A.V. (1984). *Anglo-russkiy frazeologicheskiy slovar'*. Moskva: Russkiy yazyk.
 23. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. Chicago: The University of Chicago Press.
 24. Nasrullayeva, G.S. (2019). Antroposentrik metaforaning lisoniy, kognitiv va lingvomadaniy aspekti. *Filol. fan. fals. dok. diss.* Farg'ona: Farg'ona davlat universiteti.
 25. Olimov, S., Ahmedov, S. & Qo'chqorov, R. (2014). *Adabiyot 8* (II qism). Toshkent: G'afur G'ulom NMUI.
 26. Omazić, M. (2005). Cognitive linguistic theories in phraseology. *Jezikoslovlje*, 6(1), 37–56.
 27. Oybek. (2019). *Oltin vodiyan shabadalar*. Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti.
 28. Qodiriy, A. (1926-yil 16-iyun). Suddagi nutq. *Ziyouz.uz*'da. <https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti/abdulla-qodiriy-suddagi-nutq-1926/>.
 29. Rahmatullayev, Sh., Mahmudov, N., Xolmanova, Z. (2022). *O'zbek tili frazeologik lug'ati*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMUI.
 30. Rahmon, S. (2017). Tinch oqar daryo: Asqad Muxtor ijodi, suvrati va siyratiga chizgilar (2-qism). *Kh-davron.uz*'da. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/sulaymon-rahmon-tinch-oqar-daryo-esse-ikkinchi-qism.html>.
 31. Sadykova, M. (1989). *Kratkiy uzbeksko-russkiy frazeologicheskiy slovar'*. Tashkent: Uzbekiskoy Sovetskoy Entsiklopedii.
 32. Safarov, Sh. (2006). *Kognitiv tilshunoslik*. Jizzax: “Sangzor” nashriyoti.
 33. Savchenko, A.A. & Tsareva, A.S. (2023). The cognitive characteristics of phraseology (based on phraseological semantic field “love” in english and chinese). *Russian Linguistic Bulletin*, 1(37). <https://doi.org/10.18454/RULB.2023.37.13>.
 34. Siefring, J. (Ed.). (2004). *Oxford dictionary of idioms*. Oxford: Oxford University Press.
 35. Sinclair, J. (Ed.). (1997). *Collins cobuild dictionary of idioms*. New York: HarperCollins.
 36. Speake, J. (Ed.). (2008). *Oxford dictionary of proverbs*. Oxford: Oxford University Press.
 37. Spears, A.R. (Ed.). (2005). *McGraw-Hill's dictionary of American idioms and phrasal verbs*. USA: McGraw-Hill.
 38. The idioms. (n.d.). rob Peter to pay Paul. In *thedioms.com*. Retrieved December 5, 2024, from <https://www.thedioms.com/rob-peter-to-pay-paul/>.
 39. To'xtaboyev, X. (2017). *Sariq devning o'limi*. Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti.
 40. Tuarmenskaya, A.V., Tuarmenskii, V.V. & Tuarmenskii, A.V. (2023). Metaphorical and metonymical transference in phraseological meaning formation (based on english set phrases with names of professions). *Russian Linguistic Bulletin*, 5(41). <https://doi.org/10.18454/RULB.2023.41.14>.
 41. Turdimov, Sh. (2005). *O'zbek xalq maqollari*. Toshkent: “Sharq” nashriyoti.
 42. Words Coach. (n.d.). Patient as Job. In *Wordscoach.com*. Retrieved November 24, 2024, from <https://www.wordscoach.com/idioms/patient-as-Job>.
 43. Xudoyberganova, D. (2024). *Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati*. Toshkent: Bookmany Print.
 44. Ying, H. & Yan, S. (2020). English idioms interpretation in perspective of cognitive semantics. *US-China Foreign Language*, 18(3), 88–91.
 45. Yuldashev, A.G. (2022). Tilda olam haqidagi bilimlar ikkilamchi interpretatsiyasining antroposentrik mohiyati. *Filol. fan. dok. diss.* Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari

universiteti.

46. Yusupova, S.M. (2020). Sociocultural aspect of safety theme in phraseology (by the material of English). *Russian Linguistic Bulletin*, 4(24), 24–27.
47. Gʻafur Gʻulomning duosini olgan murabbiy. (2023-yil 16-may). *Zarnews.uz*ʻda. <https://zarnews.uz/uz/post/gafur-gulomning-duosini-olgan-murabbiy>.
48. Gʻulom, Gʻ. (2004). *Shum bola*. Toshkent: “Sharq” nashriyoti.
49. Shomaqsudov, Sh. & Shorahmedov, Sh. (2018). *Maʼnolar maxzani*. Toshkent: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti.

REFERENCES

1. Abdusamadov, Z.N. (2022). National-cultural features of phraseological units with anthroponymic components in English and Uzbek languages. *PhD thes. philol. scien*. Tashkent: National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.
2. Ammer, C. (1997). *The American heritage dictionary of idioms*. Boston: Houghton Mifflin.
3. Anorboyev, S. (1962). *Oqsoy*. Tashkent: Publishing and Printing Creative House of ‘Teacher’.
4. Ashurova, D. & Galiyeva, M. (2018). *Cognitive linguistics*. Tashkent: VneshInvestProm.
5. Bakhronova, D.K. (2017). Semantic and linguoculturological features of anthropozoomorphisms (based on materials from Uzbek and Spanish languages). *PhD thes. philol. scien*. Tashkent: Uzbekistan State World Languages University.
6. Berdiyev, H., & Rasulov, R. (1984). *Paremiological dictionary of the Uzbek language*. Tashkent: Publishing and Printing Creative House of ‘Teacher’.
7. Carroll, L. (2000). *Alice’s adventures in wonderland*. USA: Colonial Press.
8. Cataldo, S. (2020). Cognitive approach to phraseological variation: some conceptualisations of mental illness in their translation into Spanish and German. In P.Mogorrón Huerta (Ed.), *Multidisciplinary analysis of the phenomenon of phraseological variation in translation and interpreting* (MonTI Special Issue 6trans, pp. 65–93). Alicante: University of Alicante. <https://doi.org/10.6035/MonTI.2020.ne6.2>.
9. Cocchiarella, N.B. (1996). Conceptual realism as a formal ontology. In R.Poli & P.Simons (Eds.), *Formal ontology* (pp. 27–60). Dordrecht: Springer. https://doi.org/10.1007/978-94-015-8733-4_2.
10. Collins. (n.d.). happy as Larry. In *Collins Dictionary*. Retrieved November 20, 2024, from <https://www.collinsdictionary.com/sentences/english/happy-as-larry>.
11. Dictionary.com. (n.d.). Tom Thumb. In *Dictionary.com*. Retrieved December 5, 2024, from <https://www.dictionary.com/browse/tom-thumb>.
12. Dobrovolskij, D., & Piirainen, E. (2005). Cognitive theory of metaphor and idiom analysis. *Linguistics*, 6(1), 7–35.
13. Farlex Dictionary of Idioms. (n.d.a). a Dear John letter. In *The Free Dictionary by Farlex*. Retrieved December 3, 2024, from <https://idioms.thefreedictionary.com/a+Dear+John+letter>.
14. Farlex Dictionary of Idioms. (n.d.b). a good Jack makes a good Jill. In *The Free Dictionary by Farlex*. Retrieved December 3, 2024, from <https://idioms.thefreedictionary.com/a+good+Jack+makes+a+good+Jill>.
15. Farlex Dictionary of Idioms. (n.d.c). do a Melba. In *The Free Dictionary by Farlex*. Retrieved December 2, 2024, from <https://idioms.thefreedictionary.com/do+a+Melba>.
16. Farlex Dictionary of Idioms. (n.d.d). in Abraham’s bosom. In *The Free Dictionary by Farlex*. Retrieved December 2, 2024, from <https://idioms.thefreedictionary.com/in+Abraham%27s+bosom>.
17. Farlex Dictionary of Idioms. (n.d.e). Judas kiss. In *The Free Dictionary by Farlex*. Retrieved December 2, 2024, from <https://idioms.thefreedictionary.com/a+Judas+kiss>.
18. Farlex Dictionary of Idioms. (n.d.f). since Adam was a boy. In *The Free Dictionary by Farlex*. Retrieved December 2, 2024, from <https://idioms.thefreedictionary.com/a+Judas+kiss>.

19. Gaybullayeva, D.F. (2022). Phraseological units as national-cultural specifics of the English and Uzbek languages. *Oriental Art and Culture*, 3(2), 194–200.
20. Gulom, G. (2004). *Naughty boy*. Tashkent: Publishing House of ‘East’.
21. Hoshimov, O. (2022). *Notes in the margins of a notebook*. Tashkent: Publishing House of ‘Bright Light’.
22. Khudoyberganova, D. (2024). *Explanatory dictionary of modern linguistic terms*. Tashkent: Bookmany Print.
23. Kovecses, Z. & Szabó, P. (1996). Idioms: A view from cognitive semantics. *Applied Linguistics*, 17(3), 326–355. <https://doi.org/10.1093/applin/17.3.326>.
24. Kunin, A.V. (1984). *English-Russian phraseological dictionary*. Moscow: Russian Language.
25. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. Chicago: The University of Chicago Press.
26. Nasrullayeva, G.S. (2019). Linguistic, cognitive and linguocultural aspects of anthropocentric metaphor. *PhD thes. philol. scien*. Fergana: Fergana State University.
27. Olimov, S., Ahmedov, S. & Qochqorov, R. (2014). *Literature 8* (Part II). Tashkent: Publishing and Printing Creative House named after Gafur Gulom.
28. Omazić, M. (2005). Cognitive linguistic theories in phraseology. *Linguistics*, 6(1), 37–56.
29. Oybek. (2019). *Breezes from the Golden Valley*. Tashkent: Publishing House of ‘New Century Generation’.
30. Qodiriy, A. (1926, June 16). Speech in court. In *Ziyouz.uz*. <https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti/abdulla-qodiriy-suddagi-nutq-1926/>.
31. Rahmatullayev, Sh., Mahmudov, N., Kholmanova, Z. (2022). *Phraseological dictionary of the Uzbek language*. Tashkent: Publishing and Printing Creative House named after Gafur Gulom.
32. Rahmon, S. (2017). The river flows quietly: Sketches of Askad Mukhtor’s works, appearance and character (Part 2). In *Kh-davron.uz*. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/sulaymon-rahmon-tinch-oqar-daryo-esse-ikkinchi-qism.html>.
33. Sadykova, M. (1989). *Concise Uzbek-Russian phraseological dictionary*. Tashkent: Uzbek Soviet Encyclopedia.
34. Safarov, Sh. (2006). *Cognitive linguistics*. Jizzakh: Publishing House of ‘Sangzor’.
35. Savchenko, A.A. & Tsareva, A.S. (2023). The cognitive characteristics of phraseology (based on phraseological semantic field “love” in english and chinese). *Russian Linguistic Bulletin*, 1(37). <https://doi.org/10.18454/RULB.2023.37.13>.
36. Shomaqsudov, Sh. & Shorahmedov, Sh. (2018). *Treasury of meanings*. Tashkent: ‘National Encyclopedia of Uzbekistan’ State Scientific Publishing House.
37. Siefiring, J. (Ed.). (2004). *Oxford dictionary of idioms*. Oxford: Oxford University Press.
38. Sinclair, J. (Ed.). (1997). *Collins cobuild dictionary of idioms*. New York: HarperCollins.
39. Speake, J. (Ed.). (2008). *Oxford dictionary of proverbs*. Oxford: Oxford University Press.
40. Spears, A.R. (Ed.). (2005). *McGraw-Hill’s dictionary of American idioms and phrasal verbs*. USA: McGraw-Hill.
41. The idioms. (n.d.). rob Peter to pay Paul. In *thedioms.com*. Retrieved December 5, 2024, from <https://www.thedioms.com/rob-peter-to-pay-paul/>.
42. The mentor who received Gafur Gulom’s blessing. (May 16, 2023). In *Zarnews.uz*. <https://zarnews.uz/uz/post/gafur-gulomning-duosini-olgan-murabbiy>.
43. Tokhtaboyev, X. (2017). *The death of the Yellow Giant*. Tashkent: Publishing House of ‘New Century Generation’.
44. Tuarmenskaya, A.V., Tuarmenskii, V.V. & Tuarmenskii, A.V. (2023). Metaphorical and metonymical transference in phraseological meaning formation (based on english set phrases with names of professions). *Russian Linguistic Bulletin*, 5(41). <https://doi.org/10.18454/RULB.2023.41.14>.
45. Turdimov, Sh. (2005). *Uzbek folk proverbs*. Tashkent: Publishing House of ‘East’.

46. Words Coach. (n.d.). Patient as Job. In *Wordscoach.com*. Retrieved November 24, 2024, from <https://www.wordscoach.com/idioms/patient-as-Job>.
47. Ying, H. & Yan, S. (2020). English idioms interpretation in perspective of cognitive semantics. *US-China Foreign Language*, 18(3), 88–91.
48. Yuldashev, A.G. (2022). Anthropocentric essence of secondary interpretation of knowledge about the world in language. *DS thes. philol.* Tashkent: Uzbekistan State World Languages University.
49. Yusupova, S.M. (2020). Sociocultural aspect of safety theme in phraseology (by the material of English). *Russian Linguistic Bulletin*, 4(24), 24–27.